

ISSN: 2181-4031

DOI Journal 10.56017/2181-4031

**4-SON**

**АПРЕЛЬ, 2023**

**ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ**

**Journal of Fundamental Studies**

**ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ**



**IMFAKTOR  
PAGES**



ISSN: 2181-4031  
DOI Journal 10.56017/2181-4031

# ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ – 2023

# ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-4>

## Бош муҳаррир:

Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

## Таҳририят аъзолари:

Кенжабаев А. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Саттаров О. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Исҳоқов М. – тарих фанлари доктори, профессор

Абдуҳалимов Б. – тарих фанлари доктори, профессор

Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент

Мадумаров Т. – юридик фанлар доктори, профессор

Қодиров Б. – юридик фанлар доктори, доцент

Қиличев Х. – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори

Баҳодиров Р. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Саифназаров И. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Идиоров У. – сиёсий фанлар доктори, профессор

Абдуллаев Н. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Сатторов А. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Умаров А. – социология фанлари доктори, профессор

Матибаев Т. – социология фанлари доктори, профессор

Каюмов К. – социология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

*Иқтисодиёт фанлари*

**TILAVOV Jasurbek Radjabbaevich**

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi*

*“Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi” fakulteti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830845>

## AMIR TEMUR QO‘SHINLARIDA MODDIY TA‘MINOTNING AMALGA OSHIRILISHI VA O‘RNI

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Amir Temur qo‘shinlarida mavjud bo‘lgan moddiy ta‘minot masalalari ya‘ni, oziq-ovqat, kiyim-kechak va moliya ta‘minotlari qay tartibda tashkillashtirilgani va amalga oshirilgani tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlari:** oziq-ovqat, kiyim-kechak, moliya, qo‘shin, ta‘minot.

## МАТЕРИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ВОЙСКАХ АМИРА ТЕМУРА РЕАЛИЗАЦИЯ И РОЛЬ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются вопросы материального снабжения, существовавшие в войсках Амира Тимура, то есть то, как были организованы и осуществлялись продовольственные, вещевые и финансовые запасы.

**Ключевые слова:** продовольствие, одежда, финансы, войска, снабжение.

## MATERIAL SUPPORT IN THE ARMIES OF AMIR TEMUR IMPLEMENTATION AND ROLE

### ANNOTATION

This article analyzes the issues of material supply existing in Amir Temur's troops, that is, how food, clothing and financial supplies were organized and implemented.

**Key words:** food, clothing, finance, troops, supplies.

Buyuk sarkarda, davlat arbobi va odil hukumdor Amir Temur o‘z davrining yengilmas va muntazam armiyasiga asos soldi. Amir Temur mohir sarkarda, bitmas-tuganmas g‘ayratga ega rahbar, qat‘iyatli, shijoatli kuchli jangchi bo‘lganligi barchamizga ma‘lum. Sohibqiron ayni kuch-quvvatga to‘lgan paytida bir oyog‘i va qo‘lidan jiddiy jarohat olganligi va ushbu jarohati bilan umr bo‘yi jang maydonida mardonavor harakatlari bilan jangchilarga ko‘rsatib kelgan jasorati taqsiinga sazovordir [1].

Amir Temurning harb ilmi borasidagi betakror zakovati jahon sarkardalari uchun ulkan saboq bo‘lib keldi va hozirgi kunda ham uzliksiz ravishda o‘rganilib borilmoqda. Uning nomi va amalga oshirgan ishlari Sharq va G‘arb mamlakatlari harbiy mutaxassislari o‘rtasida juda ma‘lum va mashhurdir.

Sohibqironning umr bo‘yi jang-u jadallarda va safarlarda yurishi, ko‘plab mamlakatlarni zabt etishi va yengilmas qo‘shinni oqilona boshqarishi barcha harbiy harakatlarni zafarli amalga oshirish uchun namunadir. Ulug‘Temur son jihatdan juda ko‘p sonli qo‘shinni say- harakatlarini qanday tarzda nazorat qilgani hamda ularni oqillik va sabot bilan boshqargani biz uchun jasorat va mahorat maktabidir.

Amir Temurning yengilmas va qudratli armiyani yaratishda bevosita moddiy ta‘minot ishlariga chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Amir Temur o‘z qo‘shinlarini doimo g‘alaba qozonishi uchun avval uning har tomonlama ta‘minotini yo‘lga qo‘ygan edi. Bu ta‘minot turlarining asosiylari oziq-ovqat ta‘minoti, kiyim-kechak ta‘minoti va moliyaviy ta‘minotdir.

Har bir qo‘shinni yengishning eng qulay usuli bu uni moddiy ta‘minot yo‘lini egallash yoki to‘xtatishdir. Amir Temurning zehni yuksak darajada o‘tkir ediki, umri davomida o‘tkazgan harbiy yurishlarida juda ko‘plab qal‘alarni qamal qilgan va shu qal‘alarni egallashda eng samarali usul moddiy ta‘minot yo‘llarini to‘xtatishdan foydalangan. Amir Temurni yoshligidan harbiy faoliyatga qobiliyati bo‘lganligi uchun ushbu sohadagi barcha bilimlarni to‘laqonli o‘zlashtira olgan. Qo‘shinni jangga otlanishidan tortib har bitta kichik bo‘linmalarni vazifasigacha alohida to‘xtalib yetkazib o‘tgan. Jumladan oziq-ovqat bo‘linmalariga alohida ko‘rsatmalar bergan.

Buyuk sarkarda Amir Temur o‘zining yuz mingdan ziyod lashkarlarini turli-xil kutilmagan sharoitlarda, jangchi uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta‘minlay olgan. Temurbek o‘zining dastlabki harbiy yurishlaridan va kichik guruhlariga bosh bo‘lgan vaqtlaridanoq bunday holatlarga duch kela boshlagan.

Amir Temur qo‘shinni oziq-ovqat bilan taomlanishi yoki bo‘lmasa xizmat hayvonlari otlarning yem-xashaklari, itlarning oziq-ovqati, mol va qo‘y kabi hayvonlarning ta‘minotini ham asosiy e‘tiborga olgan holda sarkardalik qilgan.

Amir Temur yurishga otlanishdan oldin yana bir o‘ziga xos tadbirni amalga oshirar edi. Saltanatning turli viloyatlariga tavachi va choparlar yuborilib, ommaviy safarbarlik haqida farmoni oliy e‘lon qilinadi. Bir yilga yetadigan oziq-ovqat, yem-xashak yig‘ish va hozirlash choralari ko‘riladi [1].

Temurbek bunday farmonlardan tashqari jangga yurush qilishdan ancha muddat oldin ham o‘zining maxsus ta‘minot yig‘uvchi bo‘linmalarini chiqarib yuborgani, o‘z qo‘shinlarini uzluksiz ta‘minotini amalga oshirishda misli ko‘rilmagan yordamini ko‘rsatgan.

U qo‘shinni kolonna (qism)larga bo‘lib, har biriga yo‘lboshchi – yurtchi tayinlab, yurishga otlanadi. Bunday yo‘l-yo‘riq tutish cho‘l bo‘ylab harakat qilishda suv va yem-xashak bilan ta‘minlash qulay bo‘lishi uchun, Temur lashkarlari kichik bo‘linmalarga (otryadlarga) bo‘linganligidan dalolat beradi [2].

Mana shu tariqa Sohobqiron Amir Temur o‘z qo‘shinlarining oziq-ovqat ta‘minotini shu tariqa tashkillashtirar edi. Amir Temur o‘z qo‘shinlarining kiyim-kechak va anjom-aslaxalariga alohida diqqat e‘tiborini qaratgan. Hattoki ba‘zi bo‘lib o‘tgan janglarda Temur o‘z qo‘shinlarining kiyim-kechaklaridan mohirona foydalana olishi bilan dushmanning jangovar ruhini tushirishga erishgan va g‘alaba qozongan. Temurning askarlari jangga kiyib kiradigan kiyimlarini ranggi va qaysi matodan tayyorlanishi, tashqi muhit bilan aloqasini doimo yodda tutgan. Jangchilar kiyimining ranggi dushmanlarning aqliy-ruhiy faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatishigacha Temurbek hisobga olib jangni tashkillashtirgan. Kam sonli jangchilar bilan dushmanni vahimaga sola olgan. Amir Temur har bir jangovar yurishidan oldin barcha qo‘shin tarkibi bilan harbiy ko‘rik o‘tkazgan va ushbu ko‘rikda jangchilarning kiyim-kechak va anjom aslahalarini mavjudligini tekshirgan.

Ta‘kidlash lozimki temuriylar davrida yurishdan oldin qo‘shinni ko‘rikdan o‘tkazishda, uning jangovar ruhi va holatini aniqlash ham an‘ana tarzida borgan. Ko‘rikdan nafaqat jangovar qismlar, shuningdek ularni qurol-yarog‘, oziq-ovqat, kiyim kechak zaxiralari ortilgan bir qator og‘ir karvonlar ketma-ket o‘tkazilgan [3].

Klavixo o‘z kundaligida Amir Temur qo‘shinini harbiy ko‘rikdan o‘tkazganligi va unda qizil movut bilan bezatilgan uch ming juft kiyimlarni bir qancha kishilarga tortiq qilingani haqida yozgan [4].

Sohibqironning qizil rangli kiyim-kechaklarga ko‘p e‘tibor qaratishiga ham alohida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Sohibqiron o‘z qo‘shinlari tarkibida tikuvchilar, kosiblar, chodir tiklovchilar, hayvon terilariga ishlov beruvchilar (oshlovchi), oyoq kiyimlari tikuvchilari, jangovar kiyim va sovutlarga xizmat ko‘rsatuvchi kasb egalarini olib yurgan. Ularning aniq soni aniq bo‘lmasa ham, lekin bo‘linma kabi soni ko‘p bo‘lgan.

Sohibqiron lashkarlari bilan hordiq chiqarish va ma‘lum bir hududda joylashish uchun chodirlardan, asosan tunash uchun foydalangan. Bundan tashqari Amir Temur chodirlardan omorlar sifatida, hiyla ishlatish maqsadida, va kutulmagan ob-havo sharoitlarida himoyalani uchun chodirlardan keng foydalangan. Chodirlarning o‘lchamlari ham turlicha bo‘lib odam soniga qarab tikilgan.

Chodirlar asosan zich mustahkam iplardan tayyorlangan matodan va hayvon terilaridan qilingan. Ularning rangi ham chodirdan foydalanadigan odamlarga qarab har xil bo‘lgan. Jangovar harakatlarda va doimiy foydalanish uchun kabi turlarga bo‘lingan.

Mehmonlar uchun mo‘ljallangan chodirlar eng qimmat matolardan tayyorlanib, uning tashqi va ichki ko‘rinishi juda ham hashamatli, shinam bo‘lgan. Shu bilan birga Sohibqiron o‘z farzandlarining to‘ylarini ham chodirlarda o‘tkazgan. U chodirlarning naqadar chiroyli va bejirimligidan, quyosh nurida tovlanishidan odamning ko‘zi qamashar edi.

Amir Temurning chodiri shu qadar katta ediki, uning dargohida hatto otliq askarlar ham tursa bo‘lar edi. Amir Temur ham ba‘zi hollarda o‘z chodirlariga ot bilan kirar edi.

Klavixoning taxminicha, ko‘shkning kengligi yuz qadam, balandligi esa yigirma qadam atrofida edi. Ko‘shkning tashqarisi oq, sariq va qora yo‘l-yo‘l mato bilan qoplangan bo‘lib, ichkarisidagi alvon rang matoga zarhal ipdan bezaklar ishlangan, turfa rangli ipak so‘zanalar ilib qo‘yilgan edi. Bu ko‘shkda hammasi bo‘lib o‘ttiz olita ustun bor edi. Moviy va tillarang mazkur ustunlar o‘zaro tilla suvi yuritilgan besh yuzta arqon bilan bog‘langan edi. Samolarga intilgan eng baland ustunlarga mis lagan, uning tepasiga esa oy gardishi o‘rnatilgan bo‘lib, ko‘shkning ichiga chiroyli gilamlar va behisob ko‘rpachalar to‘shalgan edi.

Shu bilan birga o‘zgacha turdagi hashamatli chodirlar hukumdor uchun tiklangan. Ayniqsa Sohibqironning rafiqalari uchun ham chodirlar yonma-yon qilib joylashtirilgan edi. Ayollarni chodirlari yaqqol sezilib turar, maftunkor va ranglari yaqqol ko‘zga tashlanar edi. Qo‘sh eshikli ko‘shk balandligi bir yarim odam bo‘yi, kengligi uch yuz qadam keladigan doira sifat devor bilan o‘rab olingan bo‘lib, u yerda hukumdor rafiqalarining bir-biridan chiroyli, turfa bezakli katta-kichik chodirlar tikilgan [5].

Bundan tashqari Sohibqiron Chodirlardan moddiy vositalarni oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-yarog‘, hamda ob-havo yomon bo‘lgan hollarda otlarni saqlash uchun ham foydalangan.

Chodir uchun ishlatiladigan matolarni ishlab chiqarish uchun ip ishlab chiqarish, to‘quv ishlarini olib boruvchi alohida kasb egalarini jamlagan edi. Bu chodirlar qishning qahraton sovuq vaqtlarida issiqni ushlab turadigan bo‘lgan. Yozning saraton issig‘ida esa quyosh nurlarini qaytarish bilan birga salqin havoni ta‘minlab bergan. Yomg‘ir, shamol va kuchli qor kabi noqulay vaziyatda qo‘shinni bemalol pana qila olgan. Chodirlarning iplarini arqon iplariga o‘xshash pishiq tolalardan tayyorlangan matodan tikilgan.

Askarlarning asosiy jangovar kiyimlari shim va chakmondan iborat bo‘lgan. Bu bilan jangda har qaysi sharoitlarda, tepalik, o‘rmonzor, botqoqlik va daryolardan kechuvlarda bu kiyim bilan harakatlanish qulay bo‘lgan. Chakmonlari tabiiy iplardan, junlardan tayyorlanar edi ter va sovuqda bir hillikni ushlab turar edi. Masalan, qizil bayroqqa ega qismlar shu rangdagi qalqon, egar, jabduq, o‘qdon, kamar, nayza, gurzi va boshqa aslahalarga ega bo‘lsalar, sariq, oq va hokazo rangda kiyingan qismlar jangchilari shu rangdagi qurol-yarog‘ va boshqa aslahalar bilan ta‘minlangan edilar. Qismlar qurollarining xillari bilan ajralib turardi [6].

Chakmonlari tabiiy iplardan, junlardan tayyorlanar edi. Ter va sovuqda bir xillikni ushlab turar edi. Harbiy kiyimlar ichki ko‘ylak, yengi tirsakkacha bo‘lgan chakmon, keng cholvor, poshnasi unchalik baland bo‘lmagan uchli etikdan iborat bo‘lgan. Samarqanddagi Bog‘i Bo‘lduda

o‘tkazilgan qazishmalar davrida, bog‘ning paxsa devorlariga shunday etiklardan birining izi aniqlangan [7].

Amir Temur o‘z davrining ko‘p mashaqqatli masalalari yechimini, davlatni va qo‘shinning moliyaviy jihatlarini tartibga solishdan boshlagan edi. Bu qo‘shinni doimo o‘z qo‘li ostida ushlashi va so‘zsiz itoat etishini ta‘minlash uchun ularning qilgan barcha sa‘y-harakatlarini, janglarda ko‘rsatgan jasoratlarini doimiy tarzda moddiy jihatdan har tomondan ta‘minlashni yo‘lga qo‘ygan edi.

Amir Temur har bitta janglarda lashkarboshi bo‘lib, qo‘shinni jangga boshlab borardi. Bu bilan qo‘shindagi jangchilarni qay birlarini, qanday tarzda mukofatlash va qancha miqdorda oylik xizmat xaqqini taqsimlashni bilar edi. Amir Temur doimo jangchilarini o‘zidan rozi qilib kelgan. Temur moddiy jihatdan jangchilarni manfaatini o‘ylab, askar zarar ko‘rmasligini inobatga olgan holda, pulning va beriladigan sovg‘aning qadrini hisobga olib, o‘zgacha tizimli maosh ta‘minotini yo‘lga qo‘yilganligi “Temur Tuzuklari” da keltirilgan.

Sohibqiron o‘z qo‘l ostidagi barcha bo‘ysinuvchilarini, oila a‘zolari, o‘g‘illari va qarindosh urug‘ tomonlarning maoshini taqsimlashda, ularning xizmati va lavozimiga qarab maosh tarqatgan. Maosh tarqatish uchun ham mas‘ul amaldorlar bo‘lib, ularning asosiy ishlari moliya tarqatish va ularni nazoratini amalga oshirishdan iborat bo‘lgan.

Pul munosabatlari bilan yaxshi tanish bo‘lmagan ko‘chmanchi xalqlar, buyumlar, qiymatini odatda, ot, qo‘y, tuya va boshqa narsalarning bahosi bilan o‘lchardilar. Shu tufayli Amir Temur jangchi maoshini shu jangchiga tegishli otning narxiga teng qilib belgilardi.

Oddiy sipohiyga o‘z vazifasini o‘rinlatib bajarish sharti bilan maoshi mingan otining bahosi bo‘lsin [8].

Bunga ko‘ra pul qadrsizlanib narx-navo o‘zgargan vaqtda ham jangchilar oladigan maosh o‘rnidagi narsani qadri yo‘qolmagan. Maosh o‘rniga beriladigan narsa yoki mol-mulk ot, tuya, qo‘y va shu kabi jonzotlar shu bilan birga raqib tomonidan qo‘lga kiritilgan qimmatbaho buyumlar bo‘lgan. Bundan ko‘zlangan maqsad narx-navolarni o‘zgarishi tufayli bozorlarda qimmatchilik yuzaga kelgan taqdirda, narxni maosh uchun me‘zon qilgani Amir Temur iqtisodiyotni nihoyatda chuqur bilishidan darak berib, avom muhofazasini o‘ylab ish yuritganidan dalolat beradi. Sohobqiron har bir lavozim egalarining maoshlarini belgilab qo‘ygan edi.

Sohobqiron o‘z saroyidagi barcha xizmatchilarning oyligini tanga puli bilan belgilab bergan edi. Uning huzurida esa eng taniqli olimlardan tortib oddiy farroshgacha xizmat qilardi.

Amir Temur xazinasini asosiy qismini yig‘iladigan soliqlar hisobidan to‘ldirib borilgan. Yuqori mavqedagi insonlarning oylik maoshlarini Sohobqiron quyidagicha ta‘riflaydi. O‘nboshi, yuzboshilarga maosh shahar omonligi xazinasidan, va podshohlik mulki daromadidan naqd pul hisobida yozilsin. Mingboshilarga viloyat ichidagi yerlardan tiyul bersinlar. Amirlar va amir ul-umarolarga esa sarhad yerlardagi viloyatlardan biri tiyul qilib belgilansin [9].

Odil hukumdor, mohir sarkarda va buyuk davlat arbobi bo‘lgan Amir Temur Turkiston xalqlarini birlashtira oldi. Har tomonlama kuchli bo‘lgan, o‘z davrining ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, harbiy nuqtai nazardan qaraganda yengilmas qo‘shinga asos soldi. Sohobqiron har bir jangga otlanishdan oldin jang taqdiri uchun ta‘sir qiluvchi muhim jihatlariga e‘tibor berdi.

O‘z lashkarlarini har qanday vaziyatlarda jangovar shayligini tushirib yubormasligiga e‘tiborini qaratdi. Jangovar shaylikka eng katta ta‘sirini o‘tkazuvchi omil bu har tomonlama ta‘minot masalasi edi. Bugungi kunda Amir Temur shaxsini o‘rganish bilan birga o‘zlikni anglash, yengilmas va matonatli jangovar ruhni shakllantirishga barcha yo‘llar ochildi.

“Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo‘lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur” ligini birinchi prezidentimiz “Agar olimlarimiz ilmiy tadqiqot ishlari zamirida ana shu fikr, ana shu maqsad bo‘lmasa, ularning sariq chaqalik ahamiyati yo‘q”, degan ta‘kidlari biz uchun doimo mash‘ala vazifasini o‘taydi.

## ИҚТИБОСЛАР

1. Ҳамидулла Дадабоев. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. – Т.: Ёзувчи, 1996, - 44 б.
2. Mixail Ivanin. Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur: harbiy san'ati, strategiya va taktikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017, - 230 b.
3. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. Fors tojik tilidan tarjima, kirish so'z va izohli lug'atlar tarix fanlari kandidanti A. O'rinboyevniki. Toshkent, 1969, - 91-92 betlar.
4. Рюи Гонзалес де Клавихо. Дневник путешествия ко двору Тимура въ С.: 1403-1406гг. Спб, 1881. - с. 334
5. Lyusen Keren. Amir Temur Saltanati. "Fan", Toshkent. 2018. – 143 b
6. Mixail Ivanin. Ikki buyuk sarkarda. Chingizhon va Amir Temur: harbiy san'ati, strategiya va taktikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017, - 186 b. (krill)
7. Alimov O'. O'rta asrlarda Movarounnahrda bog'chilik xo'jaligi tarixi. -Т.: O'zSSR "Fan" nashriyoti, 1984.- 31 b.
8. Amir Temur Ko'ragon. Temur Tuzuklari. Toshkent.: "Fan", 2019, - 101 b.
9. Amir Temur Ko'ragon. Temur Tuzuklari. Toshkent.: "Fan", 2019, - 102 b.

ISSN: 2181-4031  
DOI Journal 10.56017/2181-4031

# ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)